

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD. 03/30.12.2019.PED 78.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAHNISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**RAXMATOV A'ZAM ASHUR O'G'LI**

**TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING**  
**LOYIHALASH VA KONSTRUKTORLIK**  
**KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologiya)**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Termiz – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**The contents of the abstract of doctor of philosophy (PhD)'s dissertation on  
pedagogical sciences**

**Raxmatov A'zam Ashur o'g'li**

Texnologiya darslarida o'quvchilarning loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish..... 5

**Рахматов Аъзам Ашур угли**

Совершенствование методики формирования проектно-конструкторских компетенций учащихся на уроках технологии..... 21

**Rakhmatov Azam Ashur ogli**

Improving the methodology for developing pupils' design and construction competencies in technology lessons..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 45

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD. 03/30.12.2019.PED 78.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAHNISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**RAXMATOV A'ZAM ASHUR O'G'LI**

**TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING**  
**LOYIHALASH VA KONSTRUKTORLIK**  
**KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologiya)**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Termiz – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped5111 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Shahrisabz davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.ter-su.uz](http://www.ter-su.uz)) hamda Ziyonet axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ishmuradova Gulbahor Izmuradovna**  
pedagogika fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Turdiyev Shoxrux Razzoqovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc)  
professor

**Qo‘ysinov Odil Almurotovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc)  
professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huziridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy. Tel: (376) 221-74-55; faks: (376) 221-71-17; e-mail: [termizedu@umail.uz](mailto:termizedu@umail.uz))

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil 190111, Termiz sh. Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy. Tel: (376) 221-74-55).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ da tarqatildi  
(2025 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**M.X. Shomirzayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, p.f.d., professor

**A.B. Narbayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, p.f.f.d., dotsent

**U.B. Abdiyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, p.f.d., dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ta'lim muassasalari faoliyatini tizimli tashkil qilish, maktab ta'limida innovatsion o'zgarishlarni joriy etish, ilm-fan, ishlab chiqarishda yuqori muvaffaqiyatlarga erishishni ta'minlash, o'quvchilarda loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish, ijodkor shaxs sifatida ulg'aytirishga ehtiyoj kuchaymoqda. Jumladan, YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Incheon Declaration and SDG – Education 2030 Framework for Action (umumiy o'rta ta'lim maktablarini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi) <sup>1</sup> da o'quvchilarda ijodiy tafakkur va bilimni rag'batlantirish uchun ta'lim sifatini oshirish, tahlil qilish, muammolarni hal etish, kreativ fikrlash ko'nikmalarini qaror toptirish orqali loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirish muhim vazifalar etib belgilangan. Bu esa, texnologiya darslarida o'quvchilarda loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarni shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirish ehtiyoji va zaruratini kuchaytirmoqda.

Dunyoda ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan o'quvchilarni loyihalash va konstruktorlik faoliyatiga tayyorlash, ularda ijodkorlik ko'nikmalarini qaror toptirish va rivojlantirish, tanlagan kasblariga qiziqishini oshirishga yo'naltirilgan izlanishlar olib borilmoqda. Shuni aytish lozimki, mamlakatimizda ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar texnologiya ta'limidan boshlab o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha bilimni o'zlashtirishga ehtiyojini, texnologiya darslarida o'quvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash, amaliy mashg'ulotlarning virtual shakllarini joriy etish, texnologiya darslarida fanlararo bog'liqlikni aks ettiruvchi mashg'ulotlar majmui asosida o'qitish sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishni taqazo etadi.

Respublikamizda maktab ta'limi tizimida sifatli o'qitishga doir innovatsion o'zgarishlarni amalga oshirish, integrativ yondashuv asosida o'quvchilarda kasbiy, xususiy va umumiy kompetensiyalarini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi g'oyasini keng targ'ib etish orqali uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamon talablari asosida modernizatsiyalash, yosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashning pedagogik strategiyalarini yanada takomillashtirish"<sup>2</sup> muhim vazifalar sifatida belgilangan. Bu esa texnologiya darslarida o'quvchilarda loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirish mazmuni va bosqichlari, uning tarkibiy komponentlari va unikal parametrlarini aniqlashtirish, variativ yondashuv asosida loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik modelini hamda uning innovatsion o'qitish texnologiyalarini takomillashtirishni taqazo etadi.

<sup>1</sup> Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). P.26

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, PF-134-son “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” gi, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-300-son “O‘zbekiston-2030 strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-son “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamiz olimlaridan N.Muslimov, Sh.Sharipov, O.Qo‘ysinov, M.Shomirzayev, L.Zaripov, S.Igamov, A.Jo‘rayev, Sh.Muslimov, B.Olimov va boshqalar texnologiya fanini o‘qitishni takomillashtirish, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash muammolari bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borishgan. Dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda loyihalash, konstruktorlik hamda ijodkorlik ishlarini amalga oshirish masalalari esa Z.Radjapova, P.Magzumov, S.Yakubov, I.Islamov, S.Rajabova, A.Parmonov, I.Rasulov, M.Mahmudovlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashning turli sohalarini bo‘yicha O‘.Tolipov, L.Bobomurodova, A.Avazboyev, S.Ahmadaliyev kabi olimlar tadqiqot ishlarida atroflicha yoritishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan L.N.Andreeva, E.F.Zeer, D.Zavodshikov, N.Kuzmina, V.Slastenin, V.Bespalko, K.Andreev, P.Atutov, V.Razumovskiylar tomonidan bo‘lajak o‘qituvchilarning psixologik-pedagogik tayyorgarligi, texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy va texnologik kompetensiyalarini rivojlantirish, texnologik jarayonlarni boshqarishning turli jihatlarini asoslash hamda pedagogik jarayonga ijodiy yondashish masalalari o‘rganilgan.

Xorijiy davlatlarda ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish, bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonining mazmunini

moderinizatsiyalash masalalari A.Blum, J.Dyui, V.X.Kilpatrik, L.M.Spencer, R.Mohan va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Biroq, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarda loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirish mazmuni, tuzilmasi, komponentlari, o'ziga xos xususiyatlari va pedagogik parametrlarini aniqlashtirish, texnologiya darslarida variativ yondashuv orqali o'quvchilarda loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirishning metodik modelini takomillashtirish hamda uning pedagogik shart-sharoitlari maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa, o'quvchilarda loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Shahrizabz davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Kasbiy fanlarni o'qitishda zanonaviy yondashuv: axborot texnologiyalari va interfaol usullar" (2022-2025-yy) mavzusidagi tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** texnologiya darslarida o'quvchilarning loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

texnologiya fanida o'quvchilarning shaxs qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan 5K-modeli komponentlarini rivojlantirish;

o'quvchilarda loyihalash va konstruktorlik ko'nikmalari, amaliy va aniq fanlarning integrativ xossalari takomillashtirish;

texnologiya darslarida o'quvchilarning texnik ijodkorlik tayanch kompetensiyalari mazmunini takomillashtirish;

o'quvchilarning texnologiya faniga oid kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligini aniqlashtirish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida texnologiya darslarida o'quvchilarning loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro va Farg'ona viloyatlaridan jami 9 ta maktabning 1384 nafar o'quvchilari ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmetini** texnologiya darslarida o'quvchilarning loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida muammoga doir o'quv-me'yoriy hujjatlarni, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, kuzatish, sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat, test), pedagogik eksperiment, natijalarni matematik-statistik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

texnologiya fanida o'quvchilarning shaxs qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan 5K-modeli komponentlari - tanqidiy fikrlash (Critical thinking), ijodkorlik (Creativity), hamkorlik (Collaboration), kommunikativlik

(Communication), madaniy aloqadorlik (Connected-Culture) kabi psixologik xususiyatlari muvofiqligiga ularda loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalari rivojlantirilgan;

o'quvchilarda loyihalash va konstruktorlik ko'nikmalarni shakllantirish amaliy va aniq fanlarning integrativ xossalari (ijodiy, hissiy-rag'batlovchi o'quv topshiriqlari)ga ko'ra takomillashtirilgan;

texnologiya darslarida o'quvchilarning texnik ijodkorlik tayanch kompetensiyalari (bilish, o'rganish, axborot, kommunikativ) mazmuni ma'lumotlarni qidirish, qayta ishlash, tizimli fikrlash va amaliy vazifalarni ijodiy hal qilish kabi pedagogik parametrlarni tatbiq etish orqali takomillashtirilgan;

o'quvchilarning texnologiya faniga oid kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi sinfdagi mashg'ulotlarda yoshi, individual psixologik, fiziologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda baholashning empirik, algoritmik va evristik kabi usullari yordamida aniqlashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

texnologiya darslarida o'quvchilarning loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini aniqlashning diagnostik vositalar tizimi ishlab chiqilgan;

o'quvchilarning loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini takomillashtirishga qaratilgan "Texnologiya ta'limi metodikasi", "Xalqaro tadqiqotlar va ta'limda innovatsion texnologiyalar" nomli o'quv qo'llanmalar nashr qilingan;

texnologiya darslarida o'quvchilarning loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirishga, amaliy topshiriqlarni bajarishga qaratilgan uchun "Texnologiya daftari" ishlab chiqilgan;

"Texnologiya fani darslarida o'quvchilarning loyihalash va konstruktorlik ko'nikmalarini shakllashtirish" nomli mobil dastur ishlab chiqilgan (DGU 35881);

o'quvchilarning loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plami, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan o'quv qo'llanma, monografiya, mobil dastur, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi to'g'risidagi hujjatlarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan metodika o'quvchilarning loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini takomillashtirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni joriy etish metodikasini boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fanidan mashg'ulotlarni tashkil qilishning uslubiy ta'minotini takomillashtirish, tavsiya va metodik ishlanmalardan o'qitish tizimida amaliy foydalanish imkoniyatining mavjudligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Texnologiya darslarida o‘quvchilarning loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

texnologiya fanida o‘quvchilarning shaxs qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan 5K-modeli komponentlari - tanqidiy fikrlash (Critical thinking), ijodkorlik (Creativity), hamkorlik (Collaboration), kommunikativlik (Communication), madaniy aloqadorlik (Connected-Culture) kabi psixologik xususiyatlari muvofiqligiga ularda loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalari rivojlantirishga oid ma‘lumotlar “Xalqaro tadqiqotlar va ta‘limda innovatsion texnologiyalar” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 17-iyuldagi “314”-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan №314-209 sonli nashr guvohnomasi. ISNB 978-9910-781-01-8). Natijada, texnologiya darslarida o‘quvchilarda loyihalash va konstruktorlik kompetensiyasini shakllantirish jarayoni xalqaro tajribalar asosida takomillashuviga xizmat qilgan;

o‘quvchilarda loyihalash va konstruktorlik ko‘nikmalarni shakllantirish amaliy va aniq fanlarning integrativ xossalari (ijodiy, hissiy-rag‘batlovchi o‘quv topshiriqlari)ga ko‘ra takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar “Texnologiya ta‘limi metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 17-iyuldagi “314”-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan №314-208 sonli nashr guvohnomasi. ISNB 978-9943-8884-6-3). Natijada, texnologiya darslarida o‘quvchilarning loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi elektron ta‘lim va innovatsion texnologiyalardan foydalanishga doir tajribalar asosida takomillashtirishga erishilgan;

texnologiya darslarida o‘quvchilarning texnik ijodkorlik tayanch kompetensiyalari (bilish, o‘rganish, axborot, kommunikativ) mazmuni ma‘lumotlarni qidirish, qayta ishlash, tizimli fikrlash va amaliy vazifalarni ijodiy hal qilish kabi pedagogik parametrlarni tatbiq etish orqali takomillashtirilganligiga doir ma‘lumotlardan ERASMUS+ dasturi doirasida 2022-2024-yillarda bajarilgan 574099-EPP-1-2022-1-IT-EPPKA2-SBHE-SP raqamli PAWER-“Hududlararo mobillikni yo‘lga qo‘yish va bu borada dolzarblik, sifat hamda tenglikni ta‘minlash” mavzusidagi xalqaro loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Termiz davlat universiteti tomonidan 2025-yil 3-mayda berilgan 03/12-1813-sonli ma‘lumotnoma). Natijada, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari 8-sinf texnologiya darslarida o‘quvchilarning dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlari jarayonida loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi elektron ta‘lim muhiti sharoitida o‘qitishning samarali shakllari tabiiy, tasviriy, amaliy kabi vositalar orqali takomillashtirilgan;

o‘quvchilarning texnologiya faniga oid kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi sinfdagi mashg‘ulotlarda yoshi, individual psixologik, fiziologik xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda baholashning empirik, algoritmik va evristik kabi usullari yordamida aniqlashtirishga doir ma‘lumotlardan “Texnologiya ta‘limi metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston

Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 17-iyuldagi "314"-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan №314-208 sonli nashr guvohnomasi. ISBN 978-9943-8884-6-3). Natijada, umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya darslarini tashkil etishning metodik ta'minoti loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga doir metodikalar bilan boyitilishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komessiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 7 ta, shundan 2 tasi xorijiy, 5 tasi mahalliy jurnallarida chop ettirilgan, 1 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 134 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, uning fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslanib, ishning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va ishning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**O'quvchilarning loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida loyihalash, konstruktorlik, kompetensiya tushunchalarining mazmuni, texnologiya darslarida o'quvchilarda shakllantiriladigan loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarining metodik imkoniyatlari hamda uning psixologik-pedagogik asoslari yoritilgan.

Jahonda inson kapitaliga bo'lgan ehtiyojning ortishi "aql va mantiq" kategoriyalariga turli madaniy-ta'limiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni nazorat qilib turuvchi, yoshlarning faoliyatiga baho beruvchi zaruriy o'lchov sifatida qaralishiga sabab bo'lmoqda. Zamonaviy ta'lim nostandart fikrlash qobiliyatiga ega, erkin va ijodkor shaxsga muhtoj. Texnologiya darslarida o'quvchilarning fikrlash erkinligi ijodkorlik va muhandislik faoliyatiga yo'naltiriishi, shaxs tafakkurining sifat xususiyatlari buyumlarni loyihalay olishi va konstruksiyalash ko'nikmalarini rivojlantirilishiga sabab bo'ladi.

**Loyihalash** – mo'ljallangan obyektlar (apparat va asboblari, bino va inshootlar, yo'l va ko'priklar, mashina va jihozlar, samolyot va kosmik kemalar, telefon va kompyuterlar, kiyim-bosh va poyabzallar, mebellar hamda boshqa turli-tuman mahsulotlarning yangi xillari va namunalari)ni qurish va yaratish uchun ularning chizmasi va modelini ishlab chiqish jarayoni.


**Konstruktor** – mashina, mexanizm, inshoot va ularning ayrim qismlari konstruksiyasini, loyahasini tuzuvchi mutaxassis. Shu jumladan konstruktorlik

kompetensiyalarining shakllanishi uchun konstruksiyalash ishlari amalga oshiriladi. Konstruksiyalash (lotincha: constructs – tuzilish, qurilish) – konstruksiyalashda kerakli qism va elementlarning shakli hamda o‘zaro joylashishi, ularni birlashtirish usullari, o‘zaro ta’siri va qanday materiallardan yasalishi hisobga olinadi.

**Kompetensiya** (lotincha “competo” so‘zidan olingan bo‘lib, “erishaman, muvofiqman, mos kelaman” ma’nolarini beradi) – kishi egallagan muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar majmuasini anglatadi.

Ilmiy-nazariy manbalar va tadqiqot ishlarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirish hamda rivojlantirish masalalari asosan alohida-alohida muammolar sifatida tanlab olingan hamda amaliy-tadqiq etilgan. Shaxsda loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini qaror toptirishga bo‘lgan ehtiyoj “loyihaviy ta’lim”, “konstruktiv kompetensiya” tushunchalarining shakllanishini ta’minladi.

O‘quvchilarda loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirishning psixologik, pedagogik hamda ijtimoiy xulq-atvor bilan bog‘liq xususiyatlarini tahlil qilish asosida uning quyidagi tarkibiy komponent va bosqichlari aniqlashtirildi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. O‘quvchilarda loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirishning tarkibiy komponentlari va bosqichlari**

“Texnologiya” darslarida o‘quvchilarning loyihalash va konstruktorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga doir ta’lim jarayoni o‘ziga xos quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi: 1) faoliyat jarayonida individual sifatning yaqqol aks etishi; 2) qiziqish va ehtiyojlarni namoyish etish; 3) “tayyor” bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki o‘quv jarayonida tug‘iladigan shaxsiy bilimlarni qo‘llash; 4) o‘quvchilar tomonidan idrok etilayotgan obyektning ijobiy va salbiy jihatlarini xolisona baholash imkoniyatini beradi; 5) javoblarni muntazam ravishda izlash; 6) muammoning sabablari va oqibatlarini aniqlash; 7) umumiy va xususiy yechimlarni shakllantirish; 8) o‘z nuqtai nazarini himoya qilish va mantiqiy mulohazalar bilan yanada boyitishga e’tibor berish.

Loyihalash va konstruktiv ko‘nikmalar mazmuni quyidagi faoliyat turlari uyg‘unligida namoyon bo‘ladi:

identifikatsiyalash (identification – tanib olish, aniqlash) faoliyati ma’lumotlar mazmunini o‘rganish, manbasini aniqlash bilan bog‘liq. Har bir o‘quvchi muammoning rivojlanish xususiyatlarini, kelib chiqish sabablari (ta’limiy, tarbiyaviy, ijtimoiy) va darajasini aniqlamasdan uning yechimiga qaratilgan shaxsiy mulohaza hamda ijodiy ishlarni samarali amalga oshirishi mumkin emas. Bunga erishish uchun o‘quvchi kuzatuvchan bo‘lishi, o‘rganish va diagnostika metodlarini bilishi;

modellashtirish faoliyati – muammo yechimiga qaratilgan faoliyat yo‘nalishini, uning har bir bosqichdagi aniq maqsad va vazifalarini belgilay olish, uning natijalarini prognoz qilishi;

tahliliy-baholash faoliyati – mustaqil o‘qish va o‘rganish asosida muayyan voqea-hodisa va jarayon mohiyatini tahlil qilish, xususiy va umumiy, ijobiy hamda salbiy jihatlarni belgilashdan iborat. Shuningdek, bunda o‘quvchi tomonidan belgilangan xato va kamchiliklarni bartaraf etishga doir shakllantirilgan individual va umumiy mulohazalar qayta ko‘rib chiqilib baholanishi;

ijodiy-tadqiqiy faoliyat – muammo yechimiga doir loyihaviy yondashuv asosida turli farazlarni ilgari surish, konstruktiv faoliyatning yangi shakllari va usullarini topish yo‘lida izlanish, mavjudlarini ijodiy rivojlantirishdan iborat.

Texnologiya darslari uchun ishlab chiqilgan “Texnologiya daftari”ning maktab amaliyotida joriy qilinishi o‘quvchilarning sifatli va samarali bilim olishlariga ko‘maklashuvchi vosita bo‘lib hisoblanadi.. Bu daftar orqali o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi, ijodkorlik, kreativlik qobiliyatlari rivojlanadi, loyihalash va konstruktorlik kompetensiyasi shakllanadi.

Dissertatsiyaning **“Texnologiya darslarida o‘quvchilarning loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirishning metodik shart-sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida maktab texnologiya darslarida o‘quvchilarda loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirish mazmuni va uning didaktik modeli hamda noan’anaviy darslarda loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirish orqali o‘quv jarayonini tashkil etish va amaliy mashg‘ulotlar jarayonida loyihalashda konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirish metodik tizmi mazmuni yoritilgan.

“Texnologiya” darslarida ilg‘or o‘qitish texnologiyalaridan modulli, didaktik o‘yinli, muammoli o‘qitish, interfaol metodlar va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish o‘quvchilarda loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligini ta’minlaydi. Bu esa darslarda texnologik operatsiyalarni bajarishda kam vaqt sarflab yuqori natijalarga erishishni nazarda tutadi.

Respublikamizda maktab ta’limi tizimini uzluksiz rivojlantirish va variativ modellashtirish borasida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda: integratsiyalashgan va differensiyalashgan ta’lim asosida o‘quvchilarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarga tayangan holda,

o'quvchilarning ijodkorligini tarkib toptirish, ta'lim mazmunini belgilash, o'quvchilar bilimni baholashning zamonaviy usullarini tadqiq etish, ta'lim jarayonida axborot modellaridan foydalanish yo'llarini takomillashtirish. Shaxsning individualligini namoyon etishiga ko'maklashish va pedagogik qo'llab-quvvatlash masalasi ta'lim jarayonining yagona ishi va bu jarayonda o'quvchilarning loyihalash va konstruktorlik ko'nikmalarini variativ yondashuv va muammoli o'qitish texnologiyasi asosida shakllantirish faoliyatni tashkil etishning asosiy sharti bo'lib hisoblanadi.

Dunyo ta'lim amaliyotini tahlil qiladigan bo'lsak quyidagilar XXI asr qobiliyatlari (5K-modeli) sifatida e'tirof etilmoqda: 1) tanqidiy fikrlash (Critical thinking); 2) Ijodkorlik (Creativity); 3) hamkorlik (Collaboration); 4) kommunikativlik (Communication); 5) madaniy aloqadorlik (Connected-Culture). Ushbu qobiliyatlar kompetensiyaviy yondashuvdan kelib chiqib tasniflangan bo'lib, aytish mumkinki o'quvchilarda loyihalash va konstruktiv fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, uning pedagogik tizimini takomillashtirish va faol ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi(2-rasmga qarang).



**2-rasm. O'quvchilarning shaxs qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan 5K-modeli komponentlari**

**1. Tanqidiy fikrlash** – bu ma'lumolarni tahlil qilish, baholash va mulohaza qilish orqali to'g'ri qarorlar qabul qilishni anglatadi.

**2. Ijodkorlik** – amaliy vazifalarni ijodiy hal qilish, usullar va yechimlar yaratish qobiliyatidir.

**3. Hamkorlik** – bu jamoada birgalikda ishlash va umumiy maqsadga erishish uchun resurslarni birlashtirishdir.

**4. Kommunikativlik** – bu ma'lumotlarni yetkazish, fikrlarni tushuntirish va samarali muloqot qilish qobiliyatidir.

**5. Madaniy aloqadorlik** – bu turli madaniyatlarni tushunish, hurmat qilish va global hamjamiyat bilan aloqada bo'lish qobiliyatidir.


“Texnologiya” fani dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning konstruktorlik va loyihalash kompetensiyalarini shakllantirishda quyidagi interfaol metodlardan: “TRIZ”, “loyiha”, “mukammal harakatlar modeli”, “Detaldan buyumgacha”, “Smart step-aqli qadam”, My creativity-mening ijodim”, “Amal va xato”, “Rolli o‘yin”, “Yo‘naltiruvchi matn”, “Keys-stadi”, “Tushunchalar tahlili”, “Venn diagrammasi”, “Muammoli ta‘lim”, “FSMU”, “Aqliy hujum”, “Bahs-munozara”, “Klaster”, “Step by step” “Zinama-zina” kabi metodlardan foydalanish samarali ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, mazkur bobda o‘quvchilarning loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirishni didaktik modeli takomillashtirilgan (3-rasmga qarang). Mazkur didaktik modelni loyihalashda quyidagi qoidalarga asoslanildi: model chegaralarini belgilash; faoliyatning maqsad va vazifalarini aniqlash, ularni loyihalashtirilayotgan jarayon vazifalari bilan taqqoslash; faoliyat subyektlarini aniqlash; faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tamoyillarni tanlash va asoslash; faoliyat maqsadiga erishishni ta‘minlashga xizmat qiluvchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni hamda kutilayotgan natijaviylikni aniq belgilash.

Ushbu modelni takomillashtirishda quyidagilar e‘tiborga olindi: a) subyektiv omillar (qiziqish, idrok, muloqot, tasavvur kuchi, o‘z-o‘zini rivojlantirish); b) obyektiv omillar (ijtimoiy buyurtma, ta‘lim mazmuni, “Texnologiya” fani mazmuni); d) yaxlit o‘quv-tarbiya jarayoni; e) o‘quvchilarda zaruriy xususiyatlarning shakllanganlik darajasi. Modelning o‘ziga xos xususiyati shundaki, komponentlardan birida o‘zgarish bo‘lishi muqarrar ravishda qolgan tarkibiy qismlar mazmuniga ham ta‘sir etib, yakuniy natijada tafovutlarni keltirib chiqaradi.

“Texnologiya” darsida o‘quvchilarda loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik modeli quyidagi tarkibiy qismlarni o‘zida aks ettiradi:

- 1) maqsadli komponent – ijtimoiy buyurtma, faoliyat maqsadi va vazifalarini;
- 2) mazmunli komponent – umumiy o‘rta ta‘lim davlat ta‘lim standarti, ijtimoiy talablar; “Texnologiya” fani mazmuni, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni;
- 3) metodologik komponent – yondashuv va tamoyillarni;
- 4) tashkiliy-metodik komponent – o‘quvchilarda loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik shartlari, bosqichlarini o‘zida aks ettirgan;
- 5) natijaviy komponent – baholovchi funksiyani bajarib, tadqiqotning amaliy jihatini tavsiflaydi, loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirish mezoni, darajalari hamda kutiladigan natijani o‘zida aks ettiradi.



**3-rasm. Texnologiya darslarida o‘quvchilarning loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik modeli**

O'quvchilarning bilim, ko'nikmlarini baholashda quyidagi mezonlardan foydalanildi.

**1-daraja: "Empirik"** – texnologiya fanidan amaliy topshiriqlarni bajarishda buyumning loyihasini tuza olmagan, chizma va sxemalarni tahlil qila olmagan, texnologik xaritadan o'qituvchi ko'magida foydalanib, berilgan vazifani kamchiliklar bilan bajargan, xavfsizlik qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga qisman amal qilmagan, natijalarni tekshira olmagan va ishni yakunlamagan.

**2-daraja: "Algoritmik"** – texnologiya fanidan amaliy topshiriqlarni bajarishda, buyumning loyihasini qisman tuza olgan, faqat ko'rsatilgan topshiriqlarni bajargan, chizma va sxemalarni o'qituvchi ko'magida tahlil qila olgan, buyumni mustaqil konstruksiyalay olgan, hamda berilgan vazifani texnologik xaritadan foydalanib qisman kamchiliklar bilan bajargan, texnika xavfsizlik qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga amal qilgan holda natijalarni tekshirgan va ishni taqdim qilgan.

**3-daraja: "Evristik"** – texnologiya fanidan amaliy topshiriqlarni bajarishda, buyumning loyihasini to'g'ri tuzib, shaxsiy faoliyatli g'oyasini ham kirita olgan, chizma va sxemalarni yetarlicha to'g'ri tahlil qilib, konstruksiyasini to'liq qurgan, buyumlarni talablarga javob bergan holda mustaqil, faol, to'g'ri tayyorlagan, berilgan vazifani to'g'ri, sifatli bajargan, belgilangan vaqt me'yoriga amal qilgan, texnologik xaritadan foydalangan, texnika xavfsizlik qoidalari hamda sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq ishlagan, natijalarni tekshirgan va taqdim qilgan.

Texnologiya darslarida "Sodda ko'rinishidagi harakatlanuvchi avtomobil yasash" mavzusini o'rganish bo'yicha tashkil qilingan amaliy mashg'ulotlarda "mukammal harakatlar modeli" metodi qo'llanilgan.

**Avtomobilni loyihalayotganda hosil bo'ladigan masalalarni yechishning** ilg'or usullari mavjud bo'lib ular quydagilarni tashkil qiladi: 1) Loyihalashning ilmiy asoslari; 2) Loyihalashning texnik asoslari; 3) Loyihalashning iqtisodiy asoslari; 4) Loyihalashning tashkiliy asoslari; 5) Loyihalashning badiiy asoslari

**Loyihalashning ilmiy asoslari** deb, loyihalash jarayoniga ijodiy yondashish, ya'ni ilm-fanning oxirgi yutuqlaridan foydalanib avtomobilni loyihalashda uchraydigan masalalarning optimal yechimlarini eng qisqa muddatda topishga aytiladi.

**Loyihalashning texnik asoslari** deb, loyihalalanayotgan avtomobilning sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi va avtomobilni ishlab chiqarishda uning sifati o'zgarmasligini ta'minlashga aytiladi.

**Loyihalashning iqtisodiy asoslari** deb, avtomobilni ishlab chiqarish va ekspluatatsiya qilishda kam xarajat qilib eng yaxshi natijalarga erishishga aytiladi

**Loyihalashning tashkiliy asoslari** deb, konstruktorlik ishlarini bajarish uchun tajribali mutaxassislarning ijodiy jamoasini shakllantirish, kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish, konstruktor va tadqiqotchilarning ilg'or maktablarini yaratishga aytiladi.

**Loyihalashning badiiy asoslari** deb shakli, rangi, bezaklari chiroyli, qulay va zamonaviy avtomobillarni loyihalashga aytiladi.

Shunday qilib, texnologiya darslarida o'quvchilarni loyihalash va konstruksiyalash ko'nikmalariga o'rgatish uchun katta imkoniyatlar mavjud. O'quvchilarda shakllantiriladigan bu kompetensiyalar ularni muhandislik kasblariga tayyorlaydi, chizmalarni chizish va o'qish ko'nikmalari shakllantiradi, buyum yasash texnologiyasi bilan tanishadilar, yangi dizayn yaratishga ishtiyoq paydo bo'ladi, qolaversa, jamoa bo'lib ishlashga o'rganadilar.

Dissertatsiyaning **“O'quvchilarda loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida texnologiya darslarida o'quvchilarning loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirish samaradorligini tekshirish hamda tajriba-sinov ishlarini didaktik va metodik tahlili keltirilgan.

